

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASH YOXUD RIVOJLANISH KALITI

Nasullayev Dilshod

Ozbekiston davlat Jahon Tillari Universiteti

Xalqaro munosabatlar yo'nalishi 1-kurs talabasi

Annoatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyaga qarshi kurash strategiyalari bayon etilgan. Davlat idoralari, tashkilotlar, siyosiy muassasalarda davlat xizmatchilari tomonidan sodir etiladigan suistemolliklarni oldini olish bo'yicha takliflar berib o'tilgan. Shuningdek ushbu maqolada korrupsiyani holati chiqadigan taqdirda uni bartaraf etish, korrupsiyani darajasini pasaytirish usullari taklif tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: Korrupsiya, pora, korrupsiyaga qarshi kurash, korrupsiyaga qarshi kurashda ustuvor strategiyalar, jamoatchilik nazorati, Singapur texnologiyalari.

Xalq tilida sodda qilib aytganda poraxo'rlik, umumiy ma'noda korrupsiya jamiyatning barcha sohalari rivojiga bolta uradigan hodisa sifatida qaraladi. Korrupsiya — bu davlat idoralari, korporatsiyalar yoki boshqa tashkilotlar vakillarining o'z vakolatlaridan foydalanib shaxsiy yoki boshqa shaxslar manfaatlarini ko'zlab qonunga xilof ravishda foyda olish holatidir. Korrupsiya dunyo bo'ylab mavjud bo'lgan va tarix davomida jamiyatlarning rivojlanishiga to'sqinlik qilgan global muammo hisoblanadi. Korrupsiya jamiyatni zaiflashtiradi, ammo unga qarshi kurashish uchun barcha sohalar — fuqarolik jamiyati, davlat idoralari va xalqaro tashkilotlar birgalikda harakat qilishi kerak. Korrupsiyaga qarshi kurashda shaffoflik, qonun ustuvorligi va adolatni ta'minlash muhim ahamiyatga ega.

Korrupsiya so'zi lotinchadan tarjima qilinganda "orruptio" axloqiy buzulish, pul bilan sotib olish degan ma'nolarni anglatadi. Odatda mansabdor shaxslar o'ziga berilgan huquqlarini o'z manfaatlarini yo'lida foydalanishini bildiradi. Korrupsiya jamiyatda turli guruhlar o'rtasida amalga oshiriladi. Oddiy xalq vakillari davlat amaldorlariga yoki mansabdorlar o'zaro bir- birlariga bo'lgan munosabatlaridan kelib chiqadi. Bundan tashqari korrupsiyani bir nechta turlari mavjud. Jumladan: Oliy darajadagi korrupsiya: Bu yuqori darajadagi davlat mulozimlari tomonidan amalga oshiriladigan katta miqdordagi qonunbuzarliklarni o'z ichiga oladi. Masalan, davlat mablag'larini o'zlashtirish yoki qonunga xilof tarzda investitsiya qilish.

2. Pora: Xizmatlar yoki imtiyozlarni olish uchun beriladigan qonunga xilof ravishda to'lov. Bu har xil sohalarda, jumladan, sog'liqni saqlash, ta'lim, yoki huquq-tartibot idoralarida uchraydi.

3. Idoraviy korrupsiya: Bu davlat yoki xususiy tashkilotlarda xizmatlarni qonunga xilof tarzda ko'rsatish, masalan, mansabdor shaxslar tomonidan berilgan imtiyozlar yoki ish bilan ta'minlash.

Korrupsiyani bartaraf etish uchun ko'p tomonlama yondashuv zarur. Quyida korrupsiyani kamaytirish yoki butunlay yo'q qilish uchun samarali deb topilgan ba'zi sirlari va strategiyalar keltirilgan:

1. Qonunchilik va regulyatsiya: Korrupsiyaga qarshi qat'iy qonunlar va qoidalarni qabul qilish, ularning bajarilishini nazorat qilish va tegishli jazo choralari qo'llash muhimdir.

2. Ochiq-oydinlik va shaffoflik: Davlat idoralari, korporatsiyalar va tashkilotlar faoliyatida ochiq-oydinlikni ta'minlash, jamoatchilikni ishtirok etishiga rag'batlantirish va hisobotlarni o'z vaqtida e'lon qilish muhimdir.
3. Hisobdorlik: Barcha darajalarda rasmiylar va tashkilotlarning harakatlari uchun hisobdorligini ta'minlash, korrupsiyaga qarshi samarali choralarni kuchaytiradi.
4. Texnologiyalar: Zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali davlat idoralarining shaffofligini oshirish va korrupsiyaga qarshi kurashda yordam berish mumkin.
5. Ta'lim va xabardorlik: Korrupsiyaning xavfini tushuntirish va fuqarolarni o'z huquqlari va korrupsiyaga qarshi choralardan xabardor qilish orqali jamiyatda ongli munosabatni rivojlantirish muhim.
6. Fuqarolik jamiyati ishtiroki: Fuqarolik jamiyati tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining korrupsiyaga qarshi kurashda faolligi, davlat idoralarining shaffofligi va hisobdorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.
7. Xalqaro hamkorlik: Korrupsiyaga qarshi xalqaro tashkilotlar va mamlakatlar o'rtasida hamkorlik qilish, jahon miqyosida bu muammoga qarshi kurashishga yordam beradi.

Korrupsiyani bartaraf etish uchun barcha darajalardagi shaxslar, tashkilotlar va davlatlar birgalikda harakat qilishlari kerak. Bu murakkab jarayon, lekin qat'iy yondashuv orqali korrupsiyani darajasini kamaytirishga erishsa bo'ladi. Umuman olganda faqat xalq yoki ommaviy axborot vositalari emas hukumatni o'zi zarur choralarni ko'rish kerak.

Korrupsiyaning kelib chiqish tarixiga yuzlanadigan bo'lsak yuqorida sanab o'tilgan korrupsiya turlari qadimda ham o'rta asrlarda ham mavjud bo'lgan. Masalan qadimgi Yunonistonda oddiy xalq vakillari oqsoqollarga turli masalalarda, o'ziga og'dirish maqsadida sovg'a salom berishgan. Markaziy Osiyoda qozi mansabiga tayinlangan shaxs o'ziga berilgan vakolatlarni o'z manfaatlarini yo'lida suistemol qilgan. Aholi har xil yo'llar bilan qozilarni o'z tomonlariga og'dirib olishgan.

Aytib o'tish joizki, korrupsiyaning fundamental faktori sifatida beriladigan misollar juda ko'p. Xalqaro miqyosdagi ekspertlar, turli xil institut va tashkilotlar ko'plab tajribalar o'tkazildi. Ammo turli xil millatlar mentalitetidan kelib chiqqan holda korrupsiyaning aniq yechimini topisha olmagan. Chunki bu hodisa turli geografik hududda turlicha namoyon bo'ladi. Ba'zi bir ekspertlarning fikricha korrupsiyaning fundamental faktori-davlatlarning kapitalizatsiyasiga qarab aniqlanadi. Bu usul umumiy olganda kambag'allik darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda korrupsiya darajasi yuqori bo'lishini ko'rsatadi. Ammo yuqorida aytilganidek, turli geografik hududlarda, millatlar doirasida turlicha ko'rinishga ega bo'ladi.

Korrupsiya sodir bo'lishi mumkin bo'lgan jarayonlar bir nechta guruhlariga ajratiladi. Chunonchi, davlat xizmatiga kirishda kadrlar salohiyatini tekshirish, inson kapitalini haqiqiy qiymatini o'zbek modelidagi "obyektivka" orqali aniqlash mumkin emas. Bo'lajak davlat xizmatchisining aqliy qobiliyatini, psixologik darajasini, tibbiy holatini aniqlash o'rniga "qarindoshlarini sudlanganligini" tekshirish bu mantiqsizlik. Turli hujjatlar yig'ish jarayonida har bir hujjat va ma'lumotnomani olish kichik korrupsiyaga sabab bo'ladi.

Korrupsiyani oldini olishda Singapur texnologiyasi ko'p mamlakatlar tomonidan foydalanilmoqda. Xususan O'zbekiston Respublikasi va Singapur idoralari o'rtasida

hamkorlikni yo'lga qo'yish, korrupsiyani oldini olish, samarali texnologiyalarni milliy amaliyotda qo'llash borasi qo'shma kelishuvlarga erishildi.

Shuni aytib o'tish lozimki, Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi kurashda o'ziga xos tajribalar mavjud. Bu tajribalar turli darajalarda o'zgarib, mamlakatlarga qarab o'ziga xosliklarga ega. Quyida Yevropa mamlakatlarining korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha asosiy usullarini ko'rib chiqamiz.jumladan: Yevropa davlatlarida korrupsiyaga qarshi kuchli qonunchilik mavjud. Ushbu qonunlar korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni, jinoyatlarni aniqlash va jazolashni o'z ichiga oladi. Yevropa Ittifoqi doirasida mamlakatlar o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha hamkorlik aloqalari mavjud. Bu xususan, ma'lumot almashinuvi va birgalikda tekshiruvlar o'tkazish kabi tadbirlarni o'z ichiga oladi. Yevropa mamlakatlarida davlat tashkilotlari va kompaniyalar faoliyatining shaffofligi uchun talablar mavjud. Bu, jamoat mablag'larining foydalanishini kuzatib borish va ochiq hisobdorlikni ta'minlashga yordam beradi. Ko'plab Yevropa davlatlarida mustaqil anti-korrupsiya tashkilotlari tashkil etilgan. Bu tashkilotlar korrupsiya holatlarini aniqlash, tekshirish va jazolash bilan shug'ullanadi. Yevropa mamlakatlarida ochiq ma'lumotlar siyosati qo'llaniladi. Bu siyosat davlat tashkilotlari va hukumat faoliyatidagi ma'lumotlarni jamoatchilik uchun ochiq qilishni o'z ichiga oladi. Fuqarolik jamiyati va ommaviy axborot vositalari korrupsiyaga qarshi kurashda muhim rol o'ynaydi. Ochiq munozaralar va jurnalistik tekshiruvlar korrupsiyani aniqlashga yordam beradi.

Yevropa mamlakatlarida korrupsiyaga qarshi kurash bo'yicha qo'llanilayotgan bu usullar o'z natijalarini berib, mamlakatlardagi korrupsiya darajasini pasaytirishga yordam beradi.Singapur eng past korrupsiya darajasi sifatida jahon reytingida yuqori o'rinlarda turadi. 1965-yil mustaqil bo'lganidan keyin og'ir iqtisodiy ahvolda bo'lib, korrupsiya darajasi yuqori edi. Aholi savodxonligi past bo'lib o'z haq-huquqlarini bilmas edi. Hukumat bularni bartaraf etmay turib mamlakatni rivojlantirishni, busiz kelajak qurish mumkin emasligini anglab yetgan edi. Shu sababli byurokratik jarayonlar soddalashtirildi, mansabdorlar xatti-harakatlari reglamentlashtirildi, axloqiy meyorlarga amal qilish ustidan qat'iy nazorat o'rnatildi. Albatta bu ishlar korrupsiyani kamaytirish yo'lida asos bo'lib xizmat qildi.

Xitoyda esa korrupsiyaga qarshi kurashish boshqacha yo'sinda boradi. Jazo va huquqiy choralar boshqa davlatlardan keskinligi bilan farqlanadi.Komunistik partiya tomonidan korrupsiyaga qarshi o'lim jazosi belgilangan.Shunday bo'lishiga qaramasdan Xitoyda ko'plab amaldorlar va katta-katta kompaniya egalari korrupsiyada ayblanib hibsga olingan. Misol uchun Xitoy Banki sobiq raisi Liu Lyange qonunchilikni jiddiy buzganlikda ayblangan. Bu turdagi jinoyatlarni sodir etishda o'lim jazosini qo'llash samara beradimi? degan savol tug'ulishi tabiiy. Avvalo qayta tuzalish yo'lga kirgan mahkumni ochiqchasig qatl qilish umumiy ravishda inson huquqlari toptalishi sanaladi.Buning o'rniga alohida shaxsni tuzalish nuqtayi nazaridan boshqa jazo choralariga almashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan Braziliyada mahkumlarga turli kitoblar tarqatiladi va ularning har bir o'qigan kitobi uchun jazo muddatidan ma'lum bir vaqt olib tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi (A. Ravshanov)
2. Global Governance Forum (2020)

3. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida ‘‘ 2016-yil ’’
4. O'ME. Birinchi jild Toshkent 2000-yil
5. " Uzbekistan" Heritage Foundation.
6. International legal framework against corruption : states' obligations to prevent and repress corruption. Intersentia. ISBN 978-1-78068-092-7. OCLC 81087965
7. „О кампании «Разорви цепь коррупции»“. 2015-yil 25-oktyabrda